

# TAYANCHIM VA SUYANCHIM, FAXR-U IFTIXORIMSAN, MUQADDAS VATAN!



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## 14-YANVAR – VATAN HIMOIYACHILARI KUNI



### Ona yurtning o'g'lonlarimiz, Ko'ksi qalqon posbonlarimiz!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasi qoshidagi harbiylashtirilgan maxsus maktab-internati jamoasi yosh avlodni ham jismonan, ham ma'nan barkamol, ona Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashdek ezgu ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

– Jaloliddin Manguberding qahramonliklari haqida o'qiganimizda, qalbimizni faxr va iftixor tuyg'usi qamrab oladi. Ezgu maqsadimiz – kelajakda Vatanimiz osmonining musaffoligi, yurtimiz tinch va osudaligini buyuk ajdodlarimiz kabi fidoyilik bilan himoya qiluvchi yurt posboni bo'lish, – deydi 6-sinf o'quvchilari Abduvahob Ziyayev, Fazliddin Fayziyev, Doston Odilov, Ibrohim Valiyev, Abdusamad Ergashev.

Istiqlolning zilol chashmalaridan bahra olib, voyaga yetayotgan o'g'lonlar! Samimiy orzu-umidlaringiz amalga oshishiga shak-shubhamiz yo'q. Zero, Siz buyuk O'zbekistonimizning porloq kelajagisiz!

Jamoliddin ABDULLAYEV



**Qadrli o'quvchilar!**

Xabaringiz bor, gazetamizning o'tgan yil, 12-oktyabr sonida «O'zbekenergo», «O'ztransgaz» AJ va «Suvsoz» DUK tashkilotlarini hamkorlikka chorlab, «Boylikni bolalikdan asrang!» deb nomlangan tanlov e'lon qilgan edik. Mazkur tanlovga tengdoshlaringiz tomonidan ko'plab maktublar kelmoqda. Shu bois 2016-yilda ham tanlovni takroran e'lon qilmoqdamiz.

Sizning Ona zamin ne'matlariga befarq emasligingizga ishonamiz.

Tanlovda ishtirok etib, fikrlaringizni bildiring. Sizning bu boradagi mulohazalaringiz ezgu ishimiz rivojida eng ahamiyatli bo'lsa, ajabmas.

**DIQQAT, TANLOV DAVOM ETADI!**

**BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!**

Bir faraz qilib ko'ring-a: kun davomida elektr ta'minotida uzilish bo'lib qoldi. Siz esa dars tayyorlashingiz, bu jarayonda internet manbalaridan foydalanishingiz lozim edi. Qolaversa, har kuni bo'sh vaqtingizga mazmunni naqd qiladigan televizor yoki kompyuter qarshisida o'tirishingizning ham iloji yo'q... Yoki bo'lmasa, ko'chadan chanaqab kelsangiz-uyingizdagi suv jo'mragini burasangiz... har kuni

sharillab beminnat oqib turadigan suv kelmasa, qanday ahvolga tushishingizni tasavvur qilib ko'rdingizmi?

Shunday ekan, «bitmas-tuganmas» deya ta'riflanadigan bu boyliklarimizning ham aslida o'lchovi, me'yor, uvoli bor. Dono xalqimizning «Ummonning yonida yashasang ham bir tomchi suvni isrof qilma», «Nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lansa», kabi asrlar davomida hayot sinovlaridan o'tgan durdona hikmatlari mana shu bebaho ne'matlarni asrashimiz, qadrlashimiz lozimligiga bir ishora bo'lsa, ajabmas. Bugun ulardan oqilona foydalanmasak, isrofgarchilikka yo'l qo'ysak, bizdan kelajak avlodlarga nima qoladi? Mana shu savolni barchamiz o'zimizga berib tursak, behuda oqib yotgan suv jo'mraklarini burab qo'ysak,

yonib turgan chiroqlarni, gazni o'chirib yursak, bu xatti-harakatlarimiz bilan nafaqat uka va singillarimizga, balki ayrim kattalarga ham o'rnak bo'lsak, ayni muddao bo'lardi.

Mazkur tanlovga yurtimizning tabiiy boyliklarini asrashga doir fikr-mulohazalaringiz, takliflaringiz, hikoya va she'rlaringiz-uyingiz rasmlaringizni taqdim etishingiz, shuningdek, bu borada ta'lim maskaningizda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar haqida yozib yuborishingiz mumkin.

Tanlov o'z nomi bilan tanlov! Shunday ekan, eng mazmunli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy ishlar mualliflari g'olib deb topiladi va 2016-yil 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni arafasida aniqlanadi. G'oliblar faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Maktublaringizni kutamiz!



Sarvaroy NE'MATILAYEVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabi 4-«G» sinf o'quvchisi

Aziz bolajonlar, mana, yangi yilni ham kutib oldik. Bayramning ta'til kunlariga bog'lanib ketgani quvonchingizga quvonch qo'shgani, shubhasiz. Bo'sh vaqtingiz bisyor, bayram bahona yaqinlaringizni ko'rib, ularga nimadir hadya qilgandirsiz? Ayniqsa, sovg'ani o'z qo'llaringiz bilan yasagan bo'lsangiz, nur ustiga a'lo nur.

Rango-rang popoplari-yu, bo'rsildoq nonlarining butun dunyoga dong'i ketgan Samarqand viloyatining Jomboy tumani o'quvchilari ham hunar o'rganishga astoydil kirishishgan. Buni biz tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazi rahbari Malika opa MAMADALIYEVA bilan bo'lgan suhbatimizda bilib oldik.

**JOMBOYNING**

**BARKAMOL AVLODLARI**

— Avvalo, yurtimizdagi barcha bolajonlarni yangi — 2016-yil bilan samimiy qutlayman, — deya so'z boshladi Malika opa. — O'quvchilarimizning doimo puxta bilim va hunar egallashlariga tilakdoshman.



Bizning «Barkamol avlod» bolalar markazi bugungi kunda tumanimizdagi 56 ta umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi.

O'tgan yili markazimizdagi o'quvchilarning yutuqlari bisyor bo'ldi. Bolalarning olgan bilimlarini, egallagan hunarlarini sinovdan o'tkazish maqsadida, «Barkamol avlod» bolalar markazlari o'quvchilari orasida turli ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Jumladan, «Yurtimiz zebolari», «Zarb — 2015», «Milliy raqslar», «Ijodim — Vatanga muhabbatim» va boshqa tanlovlarda

o'quvchilarimiz munosib o'rinni egallashdi.

Bunday tanlovlarda musiqa to'garagi rahbari Rustam Nuriddinov, raqs to'garagi rahbari Madina Musurmonovaning o'quvchilari 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

«Yurtim zebolari» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 7-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Muslima Tohirova, «Til bilgani el bilan» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 30-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Humoyun Tinichev, «Ijodim — Vatanga muhabbatim» festivalining tuman va viloyat bosqichida «Boshlang'ich texnik modellashtirish» yo'nalishida Muzaffar Qurbonboyev g'olib bo'lishdi.

«Aviamodel» yo'nalishining «Katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellari» viloyat birinчилиги musobaqasining tuman bosqichida 56-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi, «Duradgorlik» to'garagi a'zosi Shahob Sherbekov 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida qatnashdi.

Kirib kelgan 2016-yil Yurtboshimiz tomonidan «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilindi. Bu esa biz murabbiylar, o'qituvchilar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

**Bugungi yosh avlod ertamiz egalari ekanligini his qilgan holda ularni komil inson qilib tarbiyalash, hunarli va bilimli qilib voyaga yetkazish har birimizning oliy maqsadimizga aylinishishi, shubhasiz.**

Suhbatni Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi

**SPEKTAKLLAR — YANGI BINODA**

Mamlakatimizda yoshlarning yuksak salohiyatli va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishida ma'naviy-ma'rifiy maskanlardan biri sanalgan teatrning o'rni beqiyos. Bola qalbida atrofdagilarga hurmat, burch va mas'uliyat hissingin shakllanishida adabiy-badiiy nashrlar barobarida qo'g'irchoq teatri ham munosib o'rin egallaydi.



Chorak asrdan beri Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat qo'g'irchoq teatri sahnasida 100 ga yaqin asarlar namoyish etildi. O'tgan davr mobaynida sahnalashtirilgan «Sehri tayoqcha», «Ajabtovur musobaqa», «Sovg'a», «Botir quyon», «Do'stingga yomonlik qilma», «Sahrodagi do'stlik», «Bolalar kulsin» kabi spektakllarni, hatto katta yoshdagi tomoshabinlar ham sog'inib eslashadi. Yaqinda Nukus shahridagi «Turkiston» kinoteatri binosining Qo'g'irchoq teatri tasarrufiga berilib, to'liq ta'mirdan chiqarilishi qoraqalpog'istonlik bolalarga ajoyib sovg'a bo'ldi.

Ha, aytmoqchi, bu yilgi bayram tantanalari yangi binoda nishonlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV



## ORZUMDAGI ASAR

2016-yilning «Sog'lom ona va bola» yili deb nomlanishi biz o'quvchilarni ham quvontirdi.

Men yangi yilda Prezidentimizning «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi o'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir» nomli kitobini yana bir bor o'qib chiqishni o'z oldimga asosiy maqsad qilib qo'ydim. Ustozimning aytishicha, bu kitob ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda beqiyos ahamiyat kasb etib, hozirgi va ertangi kunimizning eng ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekan. Unda yangi va yaqin tariximizning halli biz to'la anglab yetmagan ko'plab qirralari ochib berilgan yanada qimmatli. Jamiyatimizning taraqqiyot falsafasini, mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi, uning ravnaqi, ayniqsa, biz yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim dasturulamali bo'lib xizmat qilishini tushuntirib, puxta o'rganishimiz kerakligini ta'kidladilar.

Asardagi yoshlarga qilinayotgan g'amxo'rliklar haqidagi fikrlar barchamizni har sohada faol bo'lishga undaydi. Tinchlikni, osoyishtalikni asrab-avaylash muqaddas burchimiz ekanligini yana bir bor anglaymiz.

**Laziza SHARIPOVA,**

**Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**

## MARDLAR

### QO'RIQLAYDI VATANNI!

– Safga tur! Olg'a qadam bos! Bir-ikki, bir ikki...

Ukalarim Ilyos va Jalol televizordagi harbiylarga taqlid qilib, goh safga turib, gohida qo'shiq aytib, «Askar-askar» o'ynashadi. Ularning bu o'yinlari ko'chamizdagi bolalarga ham «yuqqan». Bir kuni o'qishdan qaytayotib, bolalarni saflanib yurishganini ko'rib qoldim. Har doimgidek safning boshida mening ukalarim. Ularni kuzatarkanman, yurtimiz sarhadlarini qo'riqlayotgan, bizning tinchligimiz, osoyishtaligimiz uchun tun-u kun mijja qoqmaydigan harbiylarga tasannolar aytgim keldi. Ular ham ukalarim singari yoshligida «Askar-askar» o'ynashgan bo'lsa, ajabmas. Menimcha, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat ruhi insonning murg'akligidanoq yuragida nish uradi. So'ngra u kattalashib, ulg'ayib boraveradi. Ukalarim ko'nglidagi Vatanga muhabbat hissi ham ular singari kundan kunga ulg'ayib bormoqda.

Hademay mamlakatimizda «Vatan himoyachilari kuni» keng nishonlanadi. Bugun saf boshida havasga odimlayotgan ukalarim kelgusida ona Vatanimizning sarhadlarini qo'riqlovchi harbiy bo'lib yetishishlari, shubhasiz.

**Maftuna SIROJIDDINOVA,**

**TIMI qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi**

Azimjon 6-sinfda o'qiydi. Maktabda u fanlarni a'lo o'zlashtirishi, namunali xulqi, sport sohasida erishgan yutuqlari bilan ko'pchilikning mehrini qozongan.

Akasi Akbarjon o'tgan yili harbiy xizmatga chaqirilgan edi. Oradan biroz muddat o'tgach, yosh askarlarning harbiy qasamyod qabul qilish tantanali marosimida qatnashish uchun u ham otanasini bilan birga bordi.

Azimjon akasining chiroyli harbiy kiyimda, qaddini g'oz tutib, qasamyod qabul qilishini ko'rib, olam-olam zavq oldi.

O'sha voqeadan so'ng harbiy bo'lish uning fikr-u-xayolini butkul band etdi.


Oynayi jahon orqali beriladigan «Vatanparvar» kabi ko'rsatuvlarni qoldirmay, muntazam ko'rib boradigan bo'ldi. Oilada otanasini, maktabda o'qituvchilarining: «Harbiylik eng sharaflil kasblardan biri ekanligi, hozirgi paytda o'zbek o'g'lonlari, harbiy xizmatni O'zbekiston hududida o'tamoqdalar. Ular uchun zamonaviy texnologiyalar asosida barcha qulayliklar, shart-

sharoitlar yaratib berilgan. O'g'il bolalar ertangi kunning dovyurak askarlari. Shunday ekan, siz mard, jasur, tanti, bir so'zli va ahdiga sodiq bo'lib ulg'ayishingiz kerak. Harbiy bo'lish uchun vaqtni behuda o'tkazmay, sport bilan oshno bo'lib, jismonan chiniqib, bilagingizni kuchga to'ldirishingiz, bilimlarni puxta egallab, ko'p kitob o'qishingiz, xorijiy tillarni mukammal o'rganish orqali o'z salohiyatingizni oshirib borishingiz kerak», degan so'zlari qulog'i ostida qayta-qayta jaranglaydigan bo'ldi.

Azimjon maktab kutubxonasidan Alpomish, Go'ro'g'li, Shiroq, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi qahramonlarimiz, ularning buyuk jasorati, Vatan uchun jonini fido qilganliklari haqidagi kitoblarni olib, qiziqib o'qimoqda.

Yaqinda Azimjon Akbarjon akasini «Vatan himoyachilari kuni» bilan qizg'in tabriklab, xat yozib yubordi. Unda shunday deyilgandi: «Aziz akajon! Bayramingiz muborak bo'lsin! Sizning el-yurt xizmatiga hamisha tayyor ekanligingiz bilan faxrlanaman. Men ham kelgusida siz kabi ona Vatanimizni himoya qiluvchi mard posbon, harbiy bo'lsan».

**Dilorom HOTAMOVA**



**AZIMJON ASKAR AKASIGA MAKTUB YO'LLADI**  
(Hikoya)

## BUVAJONIM

Men Uchtepa tumanida joylashgan o'quv markazlarining birida ustozim Sardor aka Hafizovdan ingliz tilidan saboq olyapman.

### QUTLOVIDAN SO'NG

O'ZIMGA BO'LGAN ISHONCHIM YANADA ORTDI

U yerdagi turli tadbirlarda faol qatnashyapman. Yaqinda maktab va markazimiz hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda ingliz tilidan saboq oluvchi o'quvchilar «The best» va «Perfect» nomli ikki guruhga bo'linib, o'zaro bellashdilar. Men ham «The best» guruhida ishtirok etdim va ingliz tilida tanishtiruv, suhbat tashkil etish, sahna ko'rinishi kabi shartlar orqali bilimimni sinovdan o'tkazdim. Shartlarda barcha faol qatnashdi, yangidan yangi do'stlar orttirdik. Tadbir so'ngida til o'rganishning boshlang'ich bosqichini muvaffaqiyatli yakunlaganimiz haqida sertifikat topshirildi. Ilk yutug'imdan, ayniqsa, buvajonim Mirzohid Komilov xursand bo'lib meni qutladilar.

Asosiy maqsadim otanam kabi el ardog'idagi inson bo'lishim kerakligini yana bir bor chuqur his etdim.

**Shohrux MIRZOVIDOV,**  
**poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabining 5-«G» sinf o'quvchisi**



## MENING BIZNES G'OYAM

### BUVIMGA MA'QUL BO'LDI

Ho'jaoboddek so'lim go'shaning obro'li, mahallada o'z hurmatiga ega Qosimjon va Janonxon oilasida quvonchi shodiyona bo'ldi.

O'sha kuni bu xonadonda Barchinoydek iboli, sabrli, To'marisdek shijoatli qiz dunyoga keldi. Qosimjon boboning «agar qiz ko'rsam, buvimning ismini qo'yaman», degan xolis niyati tufayli, buvimga Karomatxon deya ism qo'yishdi.

18 yoshga kirganida, buvim birga ishlaydigan Sultonboy Jo'rayev bilan turmush quradilar. Bobom va buvim hayotida juda ko'p qiyinchilik ko'rishgan, lekin shunday bo'lsa-da, bir-biriga yelkadosh bo'lib mashaqqatlarni birga yengib o'tganlar. Men ulardan ko'p yaxshi fazilatlarini o'rganyapman. Yaqinda men mevali ko'chat ekib bog' qilish, o'z mahallamda

mevali shariat tayyorlash korxonasini qurish maqsadida «Mening biznes g'oyam» tanlovda qatnashmoqchi ekanligimni buvimga aytganimda, ular rosa xursand bo'ldilar. «Mehnat qil, bolam, mehnat insonni ulug'laydi», dedilar.

Aslida, ko'chat parvarish qilishga bo'lgan mehrimni buvim uyg'otgan. Hozirda tomorqamizda olma, anor, gilos, nok kabi mevali daraxt ko'chatlarini ekib, ularni parvarish qilmoqdami. Kelgusi yili ular, albatta, mevaga kiradi.

Uyimning farishtasi bo'lgan, buvijonim mahallamizning ham faxridir. Hech bir yig'in yoki to'y-tomoshga ularsiz o'tmaydi. Mahalladoshlarimiz: «Onaxon davraga qo'shildi deguncha, o'sha yerga o'zgacha fayz kiradi», deyishadi. Tilagim, buvijonim va barcha buvijonlar baxtimizga doimo sog' bo'lsinlar.

**Sarvinoz SULTONOVA,**

**Andijon viloyati, Xo'jaobod pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiyot kollejining 1-bosqich o'quvchisi**





Tahririyatimizga ota-onalari, ustozlari hamrohligida tashrif buyurgan o'quvchilarning ko'pligi bizni doim quvontiradi.

## NABIRALARIM — KO'ZIM QUVONCHI

Bugun sizlarga buvijonisi bilan mehmonimiz bo'lgan aka-singil Xurshidjon va E'zozaxon Zohidjonovlar haqida hikoya qilmoqchimiz. Ular poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida o'qishadi.

– Nabiralarim sport, musiqa yo'nalishida, jamoat ishlarida maktabning oldi o'quvchilaridan, – deydi Gulchehra aya. – O'zim ham ularni bir zum bo'lsa-da, bekor qolishlariga yo'l qo'ymayman. Ular kitob o'qish, she'r yodlash, qo'shiq kuylash, raqsga tushishni juda yaxshi ko'radi. Shu kunga qadar ular ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, men va ota-onasining ishonchini oqlab kelmoqda. Jumladan, E'zozaxon nabiram o'zbek jang san'ati bo'yicha Respublika chempionatida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ustozi Aziza Husanova ham uning tirishqoqligi, berilgan topshiriqlarni jon-dildan bajarishini alohida ta'kidlaydi. Qolaversa, u ingliz va rus tillarida ham bimalol so'zlasha oladi.

Xurshidjon nabiram esa 5-«A» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, botanika, ingliz tili, matematika to'garaklariga qatnaydi. U «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi qoshidagi ashula va raqs ansamblining «Ko'zmunchoq» guruhining faol a'zosi. Yaqinda nabiram poytaxtimizdagi «Istiqlol» san'at saroyida bo'lib o'tgan konsert dasturida «Bugun bayram» qo'shig'i bilan qatnashdi.

«Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir», naqliga amal qilgan Xurshidjon va E'zozaxon badiiy kitoblar, gazeta va jurnallarni ham sevib mutolaa qilishadi.

Tilagimiz, o'sib kelayotgan yosh avlod kamoliga sira ko'z tegmasin.

Manzura UBAYDULLAYEVA

## UCHRASHUULAR DAVOM ETMOQDA...

Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyatining yuksalishida el ardorg'idagi insonlar bilan uyushtiriladigan uchrashuvlarning o'rni katta.

Bu borada, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabi jamoasining olib borayotgan ishlari diqqatga sazovor. Nargiza Xolmuhammedova rahbarlik qilayotgan ta'lim maskanida tez-tez turli tadbirlar, uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlar, davra suhbatlari o'tkazish yaxshi a'nana aylangan.

Tarbiyada eng katta yutuq – o'rnak bo'lish, deyishadi. Bola eshitganidan ko'ra, ko'rganini ko'proq yodda saqlab qoladi. Kuni kecha maktabga bolalar shoirlari Tursunboy Adashboyev va Dilshod Rajabning tashrif o'quvchi va ustozlarni juda quvontirdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar mehmonlarni ham xushnud etdi. Ular ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida hikoya qilib, she'rlarini

namunalar o'qishdi.

Shoirlar ham o'zlarining yangi ijod namunalaridan ularni bahramand etib, quvnoq savol-javoblar o'tkazdilar. Tursunboy



Adashboyev bolalarga ta'lim sohasida yaratilgan qulayliklardan unumli foydalanishlari, Dilshod Rajab esa kitob bilan doimo do'st bo'lishlarini alohida ta'kidlashdi.

Ijodkorlar bilan o'tkazilgan navbatdagi tadbir kutilganidek o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Muzaffar AHMEDOV

## XORAZMLIK KITOBSEVAR

Aziza Oltiboyeva – Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 5-«A» sinfida tahsil oladi. Hikoya, rivoyatlar o'qishni juda yoqtiradi.

Yaqinda u sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi she'r, hikoya, ertak va rivoyatlar juda qo'l keladi. U To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romanini o'qib «Tong yulduzi» gazetasini ham sevib mutolaa qiladi. Tugatibdi. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, Ayniqsa, «Ingliz tilini o'rganamiz», «Ertamiz egalari», «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir» sahifalarini o'qishni, topishmoqlarni topishni yoqtiradi. Bu mashg'ulotlarni ukasi Behruz bilan birgalikda bajaradi.

Aziza 2016 - yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganini quvonib aytdi. Gazetaning ijodiy xodimlariga Yangi yil tabrigini yetkazib qo'yishimizni so'radi.

Sinfida 30 nafar o'quvchi bo'lib, matematika fani o'qituvchisi Layloxon Allaberganova ularga rahbarlik qiladi. Aziza maktabda o'tkaziladigan bayram tadbirlarida faol ishtirok etadi, bunda unga o'qigan kitoblaridagi



Aziza o'qigan kitoblaridan buvisi Bibijon ayaga so'zlab beradi.

Gulchehra KARIMOVA

Yaqinda rus tili fani o'qituvchimiz Guljahon Aliqulova boshchiligidagi yil fasllariga bag'ishlangan tadbir o'tkazdik.

## TIL BILISH TAFAKKURNI BOYITADI

Unda har birimiz rus tilida she'r, topishmoq, maqollar aytib, ushbu fandan egallagan bilimlarimizni ko'rsatishga harakat qildik. 4-«B» sinf o'quvchilari «Teremok» ertagi asosida sahna ko'rinishini namoyish etishdi.

Nigora Ochilova, Nodira Qo'ziyeva, Xurshida Hotamova, Nazira Saidova kabi o'qituvchilar tadbirimizni kuzatib, rus tilini puxta o'zlashtirganimiz, bunda ustozimizning xizmati katta ekani haqida iliq fikrlar bildirildilar.

Tadbir tufayli til o'rganishga bo'lgan qiziqishimiz yanada oshdi.

Madinabonu BOYQOBILOVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 5-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

## INTILISH – MAQSADGA YETAKLAYDI

Ulug' allomalar yoshlikdan uch narsani qadrlashgan: vaqt, o'qish va mehnatni.

Bolaligidan vaqtning qadriga yetib, maqsad sari intilayotgan, o'zining xulqi, odobi, yutuqlari bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yoshlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Madina Rahmatullayeva ana shunday umidli yosh avlod vakillaridan biri. U poytaxtimizdagi 283-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. «Bolalar uchun eshittirish» hamda «Dunyo bo'yab» telekanalining «Bolalar sayyorasi» ko'rsatuvida boshlovchilik qiladi.

So'zlari burro, ovozi tiniq bu qizcha bilan orzu-umidlari, suxandonlik



fazilatlarini haqida suhbatlashdik:

– Yoshligimdan she'r yodlashni yaxshi ko'raman. Shu sabab ustozim

Umida Nizomiddinova tadbirlarda she'r o'qishini taklif qilardi. Bir kuni otamga, qizingizni radio yoki televideniye suxandonligiga olib boring, debdilar. Shundan so'ng 1-sinfdan boshlab rudadoda bolalar eshittirishlarini olib boryapman. Bir yildan so'ng «Dunyo bo'yab» telekanalidan kelgan rejissyor meni boshlovchilikka taklif etdi. Hozir bu yerda Yulduz Karimova, Yoqutxon Turdiyeva, Go'zal Soliyeva, Go'zal Toshmatova, rejissyorlar Hojiakbar Rasulov, Vahobiddin Isayev, Sardor Toshmurodovlardan suxandonlik sirlarini puxta o'rganyapman.

– Adabiyot fani va ingliz tili to'garaklariga ham faol qatnashar ekansiz...

– Maktabimizda Muhiba Rajabova rahbarligidagi «She'riyat gulshani» to'garigiga, shu bilan birga, ona tili va adabiyot fani o'qituvchimi Dilorom opa Nazarovaning adabiyot to'garigiga qatnashaman. U yerda olib borilgan

nazariy mashg'ulotlar bois, she'r va maqolalar mashq qila boshladim. Ijod namunalarim «Tong yulduzi» va ko'plab respublika nashrlarida yoritilgan. Shuningdek, ingliz tili bo'yicha ham puxta saboq o'layapman. Sevimli bolalar yozuvchi va shoirlaridan – Xudoyberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajabning ijod namunalarini sevib o'qiyman.

– Suxandon bo'lishni istagan tengdoshlaringizga nima degan bo'ldingiz?

– Ko'p kitob o'qish kerak. Shunda kishining so'z boyligi ortadi. Alisher Navoiyning so'z qudrati haqidagi fikrlarini qayta-qayta o'qib, olam-olam zavq olaman. Xorijiy tillarni o'rganish ham bilim doiramizni kengaytiradi.

Yosh bo'lishiga qaramay, niyatlari ulug' Madinaga havas qildik. Kelajakda yanada katta yutuqlarga erishishini tiladik.

Nodira NAZAROVA



**Lesson 69**

**OUR FUTURE SOLDIERS**  
(Bo'lajak posbonlarmiz)

The pupil of boarding school by Republic of Uzbekistan Ministers of Home Affairs «Jar» sport improve the children's health of specialized military 6th form Sardor ALISHEROV with his classmates always follow the newspaper «Tong Yulduzi» and discussing the new 2016 year's edition with great interest.



**USEFUL WORK**  
(Foydali ish)



Sardor got up in the morning and looked through the window. The sun was shining and it was nice day.

Sardor wanted to do some good things. He was sitting and thinking: «If my little sister sank and I save her». But his little sister was there:

- Walk with me Sardor!
  - Go away, don't disturb me to think!
- The little sister offended and went away.

Sardor was thinking:  
If nanny was attacked by wolves and I shoot them!  
But nanny was there:

- Wash up the dishes, Sardor!
  - Do it yourself - I have no time!
- Shook her head nanny.  
Sardor was thinking and thinking: If Olapar goes down to hall and I take out it!  
But Olapar was there: Wagging with his tail: «Give me water, Sardor!»
- Go away! Don't disturb me to think!
- Then Sardor went to his mother:
- What can I do better?
  - Stroking his head Sardor's mother said to him: Walk with sister, help to nanny to wash up and give the water to your dog. It is better than thinking what to do.

*Translated by Dinora SHAKIROVA*

**CROSSWORD**

Write the correct letters in the blank spaces and you will find the names of 12 means of transport.

Made by Zohida TURSINOVA, English teacher of school number 31 in Mirobod district

**DO YOU KNOW THIS?**  
(Bilasizmi?)

**Science for kids**

- \* Regular exercise helps boost the immune system.
- \* The tallest basketball players to ever play in the NBA. They were both 231cm.
- \* The brain uses over a quarter of the oxygen by the human body.
- \* Most adults have 32 teeth and your nose and ears continue growing throughout your entire life.
- \* The left side of your body is controlled by the right side of your brain while the right side of your body is controlled by the left side of your brain.
- \* It takes the body around 12 hours to completely digest eaten food.



**FIND THE WORDS BEGINNING WITH «H»**  
(«H» harfi bilan boshlanuvchi so'zlarni toping!)

Do you know the names of these things in the picture?

Dono AHMEDOVA

**TONGUE TWISTERS**  
(Tez aytishlar)

The cook took a good look at the cookery book.

The hall is on the fourth floor.

Snowman sled on slippery snow during a snowfall.

Bobby brings bright bells.

**RIDDLES**  
(Topishmoqlar)

It blooms, have a lot of leaves, And decorate any season our shelves.



It saves from the sun shine, Our rooms will be shade all the time.



Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school number 54 in Urta Chirchik district, Tashkent region Shahnoza MAMAJONOVA chizgan rasmlar





**BIRINCHI USTOZIM**

Siz mening ilk ustozim,  
Bizlar uchun mehribon.  
Ilm-u fanni o'rgatgan,  
Eng aziz, ulug' inson.

Maktabda ona bo'lib,  
Mehringizni berasiz.  
Bilmaganim o'rgatib,  
Erkalab ham qo'yasiz.

**Soliha BEKNAZAROVA,**  
Toshkent shahar, Chilonzor  
tumanidagi 179-umumta'lim  
maktabining 5-sinf o'quvchisi



**ALP QOMAT O'G'LONLAR**

Yurtimning mard posbonlari,  
Alp qomat o'g'lonlari.  
Qasamyodda vijdonlari,  
Harbiylardir, harbiylar.

Siz bor – bayram har kunimiz,  
Osoyishta kun-tunimiz.  
Hushyor, ziyrak har ishdadir,  
Harbiylardir, harbiylar.

Liboslari ko'rkam biram,  
Kuchli, jasur, odil, o'ktam.  
Qo'rquv bilmay tashlar qadam,  
Harbiylardir, harbiylar.

Yigit kuchi bilagida,  
Yurt ishonchi tilagida.  
Or-nomusi yuragida,  
Harbiylardir, harbiylar.

**Iroda RAHMONTALIYEVA,**  
Toshkent viloyati, Chinoz  
tumanidagi 22-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

**ISTIQLOL BIZGA QANOT**

Yurtimiz tinch, osuda,  
Maqsadlar juda ulkan.  
Yurtboshimiz doimo,  
Biz yoshlarni o'ylagan.

O'zbekiston bolalari,  
Mening dilbandim, deydi.  
Bizdan ko'ra farzandlar,  
Baxtli yashasin, deydi.

Bilimdonlarni qo'llab,  
Quvvatlagan ham shu zot.  
Orzularim bir dunyo,  
Istiqlol bizga qanot.

**Roziyaxon BAHODIRXONOVA,**  
Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim  
maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



Bu voqeaga ancha yil bo'ldi. Boshim og'rib shifokorga ko'rinish uchun, dadam bilan yo'lga chiqdik. Yo'l yoqalab ketayotsak, oldimizdan paxmoq kuchukcha chiqib qoldi. Uning oyoqlari, dumining uchi oppoq, qolgan joylari baxmaldek silliq, qop-qora edi. Kuchukcha shunaqangi yoqimtoy ediki, uni ko'rib boshim og'riyotgani ham esimdan chiqib ketdi. Dadamga yalina-yalina, uni uyimizga olib ketishga ko'ndirdim. Birovniki bo'lsa uyat bo'ladi, deb ancha paytgacha rozi bo'lmadilar. Bu ishimizdan onamning jahli chiqdi.

– Bu nimasi, nega buni ko'tarib keldinglar? – dedi.

Dadam voqeani tushuntirgach, noiloj rozi bo'ldilar. Men uni parvarish qila boshladim. U ham menga o'rganib qoldi. Unga Sirtlon deya nom qo'ydim. Oradan ikki yil o'tdi. Men ham 5-sinfga ko'chdim. Bir kuni sinf rahbarimiz uyga qo'ng'iroq qilib, mening o'qishlarim yuzasidan otamga shikoyat qilibdi. Uydagilar baholarimni tezda tuzatmasam, Sirtlonni yaylovda turadigan amakimga berib yuborishlarini aytishdi. Bu gapdan qo'rqib ketdim. Uyga berilgan vazifalarni bajarishga kirishdim. Bo'sh paytlarimda onamga ham uy ishlarida yordamlasha boshladim. Har gal hovliga chiqqanimda, Sirtlon oldimga yugurib kelib, dumini likillatganicha erkalanardi. Men esa unga e'tibor bermasdim. U hayron bo'lib, biroz jim turardi-da, asta yurib uchasiga kirib ketardi. Mening esa unga rahmim kelardi. Lekin baholarim yaxshilanmaguncha u bilan o'ynamaslikka o'zimga so'z bergandim. Shu bois erkalagim kelsa ham o'zimni zo'rg'a bosardim.

**SIRTLON**



(Hikoya)

Yangi yil arafasida baholarim yaxshilangani haqida ustozimdan olqish oldim. Bu xushxabarni onamga yetkazish uchun uyga yugurdim. Darvozadan kirsam, Sirtlon hovli o'rtasida turgan ekan. Men tomonga bir qarab qo'ydi-da, yana uychasi tomon keta boshladi.

– Sirtlon, men «besh» oldim, endi a'lochilar safidaman, – dedim ovozim boricha baqirib. Ovozimni eshitib, onam ichkari uydan yugurib chiqdilar. Sirtlon esa chopib kelib o'zini menga otdi. Qalin yoqqan qor ustiga yiqildim. Kulganimcha, uning ustiga qor sochdim. Sirtlon esa atrofimda gir aylanib chopardi.

**Xosiyatxon HASANOVA**

**«NIHOL»CHILAR «TONG YULDUZI»DA**



ZUBAYDA olgan surat

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida 40 ga yaqin to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Ushbu maskanda tajribali ustoz-murabbiylar 1216 nafar o'g'il-qizlarga ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda. Ana shunday jonkuyar ustozlardan Mahmuda opa Valiyeva, mana 30 yildirki, «Nihol» yosh qalamkashlar to'garagiga rahbarlik qilib kelmoqda. To'garak a'zolari yangi yildagi ilk mashg'ulotlarini «Tong yulduzi» tahririyatida o'tkazishdi. Ular, avvalo, gazetani nashrga tayyorlash va bosmaxonadagi ish jarayonlari bilan, keyin esa «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlanayotgan yangi kitoblarning muqovalash jarayoni bilan tanishishdi. So'ng gazetaning adabiyot bo'limi muharriri shoir Axtamqul o'quvchilarga «Bahorimdan kechikkan gul» she'riy to'plamidan joy olgan she'rilaridan namunalar o'qib berdi.

o'quvchilarimda juda katta taassurot qoldirdi, – deydi biz bilan suhbatda Mahmuda opa, – g'azalda Vatanga muhabbat juda kuchli tasvirlangan.  
– Shoirning:

**Muhabbati tengsiz Vatan, tuprog'imda gullayapti,  
Quvonchimga quvonch qo'shib, ardog'imda gullayapti.**

**Yuragimning iftixori, orzularim ulug'vori,  
Hayotimning ilk bahori, bayrog'imda gullayapti...**

– Shoirning «Vatan» nomli g'azali

kabi jo'shqin baytlarini yuragimizga muhrlab oldik, – deya suhbatga qo'shildi to'garak a'zolaridan Bobur Baxtiyorov. – She'r va so'zning kuchi nechog'li qudratga ega ekanligiga yana bir bora amin bo'ldim.

Shoir xalq dostonlaridan parchalarini yoddan aytib berganida, to'garak a'zolari ilhomlanib ketishdi. «Nihol»ning yosh nihollaridan Sharofat Rahimxo'jayeva, Madina Fatxullayevalar ham o'z ijod namunalaridan o'qib berishdi.

Ushbu ijodiy uchrashuv o'quvchilar uchun o'ziga xos mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

**Jamoliddin ABDULLAYEV**





## QALBLAR FAXRGA TO'LDI

Yangi yil o'lkamizga katta quvonch olib keldi. Joylarda hamon bayram tantanalari davom etmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorao'zak tumanidagi 145 nafar qizga Prezidentimiz sog'vasi – sport kiyimlari topshirishi sportchi-yoshlar qalbini faxrga to'ldirdi.

Yuqori sifatli, milliy va zamonaviy uslubda tikilgan sport kiyimlari qizlarni yanada yangi marralar sari chortladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular orasida uch yildan beri taekvando bilan shug'ullanib, mamlakat chempionatlarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan tuman 3-BO'SM tarbiyalanuvchisi Xonzoda Polvonovaning ham borligi quvonarlidir. Bu iste'dod egasi ko'rsatilgan e'tibordan mamnun bo'lib, yangi yilda ham yuqori cho'qqilarni zabt etishga ahd qildi. E'tiborlisi, ular mashg'ulotlarni allaqachon boshlab yuborishgan.

Nozima JAVHAROVA

## BARCHINOY IZDOSHLARI

Nargiza tuman markazida ochilgan sport to'garagiga bormoqchi ekanini aytganida, uyidagilar bunga rozi bo'lmadi.

– Yo'q. Bu yer qishloq joy bo'lsa, qiz bolaning sport bilan shug'ullanishi urf-odatlarimizga to'g'ri kelmaydi. Odamlar nima deydi, axir. Uning o'rniga ana, qo'shni momdan paypoq to'qishni o'rgana qol. Ertaga turmushga chiqqaningda asqotadi, – dedi Bashirjon aka qat'iy ohangda.

Ota so'zi qonun bo'lgan bu xonadonda birgina qaror tufayli Nargizaning sportchi bo'lishdek bolalik orzulari ushalmay qoldi...

Yillar o'tdi, zamonlar o'zgardi. Istiqloq yillarida mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, qishloq joylarida ham zamonaviy sport inshootlari qad rostladi. Eng asosiysi, hukumatimiz tomonidan soha rivojiga doir qator qonun va qarorlarning qabul qilinib, hayotga keng tatbiq etilishi tufayli, xalqimizning sportga, xususan, ayollar sportiga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan Nargiza Tamalova ham bolalik orzularini ro'yobga chiqarish maqsadida sport murabbiyligi bo'yicha tahsil oldi. Hozirda u badiiy gimnastika to'garagini ochib, jajji qizaloqlarga mazkur sport turining sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda.

– Mustaqillik tufayli orzularim ushaldi, – deydi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi badiiy gimnastika to'garagi rahbari Nargiza Tamalova. – 2010-yilda tuman xotinqizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda ushbu seksiyani tashkil etdik. Dastlabki mashg'ulotlarni 5-6 ta qiz bilan boshlagan bo'lsa, hozirga kelib, shogirdlarimning soni 50 nafardan oshdi.

Bugun viloyat tumanlarida badiiy gimnastika to'garaklari tashkil etilib, ular Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi viloyat filiali tomonidan zarur anjomlar bilan ta'minlanayotir.

Quvonarlisi, bugun ushbu sport turi bilan Qashqadaryoda qariyb 1000 nafarga yaqin qiz muntazam shug'ullanib kelmoqda.



Bugunga qadar to'garak a'zolari respublika miqyosida bo'lib o'tgan ko'plab musobaqalarda munosib ishtirok etib, yaqinlari ishonchini oqlab kelmoqda.

Jumladan, Kitob tumanidagi 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi E'zoza Kamoljonova Qarshi shahrida bo'lib o'tgan

turnirda faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sug'diyona Qahhorova Toshkentda o'tkazilgan Respublika turnirida sovrinli o'rinlardan birini egalladi.

– Bir necha yildan buyon ustozim Nargiza opa rahbarligida badiiy gimnastika sir-asrorlarini o'rganib kelmoqdaman, – deydi E'zoza Kamoljonova. – Shu kunga qadar ko'plab musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdim. Nasib bo'lsa, kelajakda ona Vatanim sharafiga qit'a va jahon chempionatlari, Olimpiada o'yinlarida munosib himoya qilmoqchiman. Bu yo'lda uchraydigan har qanday qiyinchilikni esa matonat bilan yengib o'tishga va'da beraman.

E'zozaga o'xshagan iste'dodli qizlar yurtimizda ko'plab topiladi. Biz ularning kelajak parvozlarini yuksak bo'lishiga tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV

## O'LOV – HAM DO'ST, HAM...

Ma'lum bo'lishicha, respublikamizda sodir bo'lgan yong'inlarning aksiyati bolalarning e'tiborsizligi tufayli sodir bo'lar ekan. Bu holat, o'z navbatida, o'sib kelayotgan kelajak avlodni bunday ofatlardan muhofaza etish, ular xavfsizligini to'la ta'minlashni kuchaytirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga yong'in xavfsizligi qoidalaridan boshlang'ich saboq berishni samarali tashkil etish, ularni bunday holatlarda harakatlanish qoidalariga o'rgatishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda umumta'lim maktablari, kollej o'quvchilaridan iborat ko'ngilli yosh o't o'chiruvchilar guruhini tashkil etish va bu guruhlar faoliyatini tartibga solishga doir bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Yaqinda Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq Ijtimoiy va iqtisodiyot kollejida tumanida joylashgan ta'lim muassasalari o'rtasida «Olov – ham do'st, ham dushman!» mavzusida tanlov o'tkazildi. Qatnashchilar yong'in xavfsizligi qoidalarini targ'ib qilish barobarida ta'lim maskanlarida, jamoat joylarida xavfsizlik qoidalariga amal qilishga doir bilim va ko'nikmalarini o'rtoqlashdilar. Ayniqsa, viktorina o'yinida yosh o't o'chiruvchilar sohaga doir bilim va mahoratlarini namoyish etishdi. Bellashuvda Pedagogika va xizmat

ko'rsatish kollejining «Uchqun» jamoasi 50 ball to'plab, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Mezbon kollejning «Doyvuraklar» jamoasi 2-, Axborot texnologiyalari kollejining «Lochin»lari 3-o'rinni egallashdi.

Bu kabi tadbirlar huquqiy tarbiyaning bir ifodasi bo'lib, ular kelgusida bolalar ishtirokidagi yong'inlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dildora ERALIYEVA



## SINGAPURDAN G'ALABA BILAN

Yaqinda Singapurda gandbol bo'yicha o'tkazilgan chempionatda O'zbekiston o'smirlar va qizlar terma jamoasi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, qizlarimiz final bahsida yaponiyalik gandbolchilarni 30:28 hisobida mag'lubiyatga uchratdi va oltin medal bilan taqdirlandi.

O'smirlar terma jamoamiz esa mamlakatimiz sharafiga himoya qilib, yurtimizga kumush medal bilan qaytdi.

Ulug'bek SAIDOV

## ZOMIN MAKTABLARINING BIRIDA...

Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabida «Kamalak» bolalar tashkiloti hamda «Kamolot» YOIH birgalikda «Ogohlik – davr talabi» shiori ostida maktab ichki tur shaxmat va shashka musobaqasi o'tkazildi.

5–9-sinflar o'rtasida

kechgan bellashuvlar yakunida 6-«B» sinf o'quvchilari Suyunbek Toyloqov va Mohinur Umurzozqova g'olib bo'lishdi.

Shuningdek, bu yerda tumanidagi maktab o'quvchilaridan iborat jamoalar ishtirokida «Sog'lom ona va bola yili»

munosabati bilan sportning voleybol turi bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi. Unda mezbon maktab jamoasidan 8–9-sinf o'quvchilari Shohrux Shodiyorov, Islom Sattorov, Shahzod Rahimov, Muhammad Meliboyev, Bobur G'aniyev, Sadridin Jaynoqov, Nizomiddin Yaxshilqovdan tashkil topgan voleybolchilar birinchi o'rinni egallashdi.

Shukrulla G'ULOMOV





# SHARAFLI BURCH

Berilib dars tayyorlab o'tirgan 7 yoshli Komilning xayolini eshik qo'ng'irog'i buzdı. «Uyimizga kelgan kim ekan?» degan qiziqish bilan eshikni ochgan Komilning ko'zi harbiy xizmatdan qaytgan akasiga tushdi. Barcha oila a'zolari «mehmon»ni quchoq ochib qarshi olishdi. Yaqinlar dasturxon atrofida o'tirib, uzoq suhbat qurishdi. Komilning ham savollari ichiga sig'may, asta gap boshladi:

- Akajon, harbiy xizmatni o'tash qiyin emasmi?
- Yo'q, aksincha, o'tgan bir yil hayotimdagi eng unutilmas, eng mazmunli davr bo'ldi.
- Sharafli burch nima?
- Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrash, xalqiga sidqidildan xizmat qilish, har bir inson uchun muqaddas va sharafli burch hisoblanadi.

- Harbiylar jasur, mard, jasoratli bo'lishlari kerak-a?

- Albatta, axir mardlik yigit kishining ko'rki, ziynati. Vatanimizni himoya qilayotgan har bir o'g'lon bu xislatlarga ega.

- Akajon, bilasizmi, har doim harbiy kiyimdagilarni ko'rsam, ularga juda havasim keladi.

- Men ham sening yoshingda yurt himoyachilarini ko'rganimda «katta bo'lsam, albatta, harbiy bo'laman», deb orzu qilardim. Nasib qilsa, Oliy harbiy bilim yurtiga kirishni maqsad qilganman.

- Akajon, men ham katta bo'lsam, albatta, harbiy bo'laman.

- Unda hozirdanoq harakatingni boshla. Biror bir

sport turiga qatnash - chiniqasan, toblanasan. Ko'proq kitob o'qi. Chunki bo'lajak yurt posbonlari har jabhada barchaga o'rnak bo'lishi kerak.



O'sha suhbatdan so'ng Komil sportning belbog'li kurash turiga qatnasha boshladi. Televizordagi Vatan himoyachilariga bag'ishlangan ko'rsatuvlarni qoldirmasdan ko'radi. Akasi undan haqiqiy vatanparvar chiqishiga ishonadi.

**E'zoza MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi 8-«D» sinf o'quvchisi**

Kitob insonni kamolot sari yetaklaydi. U bizning beminnat, dono do'stimizdir. Men ham bo'sh vaqtlarimda kitob o'qiyman. Bizning kutubxonada ajdodlarimizning nodir asarlari, zamonaviy adabiyotlar, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari, barchamiz uchun qadrlı bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi taxlamlari ham bor.

# KITOBGA MEHR



Kutubxonachi opamiz Sayyora Saidova bizga doim «Kitob bebaho boylik, bilimlar manbaidir», - deb uqitradilar. Qancha ko'p kitob o'qisak, shuncha zehnimiz o'tkir, fikrlashimiz teran bo'ladi. Shunday ekan, biz kitoblarni avaylab-asrab, sahifalarini yirtmasdan o'qishimiz lozim.

Men maktab kutubxonasida tashkil etilgan «Muqovachilik» to'garagiga qatnayman. U yerda biz eskirgan kitoblarni yelimlab, ta'mirlaymiz.

Keling, aziz tengdoshim, kitobga mehr beraylik!  
**Shukurjon SAMANDAROVA,**  
 Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi  
 29-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

# RASMLAR KO'RGAZMASI

Bolalarimiz fasllar ichida qishni o'zgacha intiqlik bilan kutishadi. Ona zamin oppoq qorga burkanishi bilan ko'pchilik baland tepaliklarda chang'i, chana, sirpanchiqlar uchishadi. Tabiat go'zalligi esa keksa-yu yoshni birdek quvontiradi.

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan yuborilgan ijod namunalari tomosha qilar ekanmiz, beixtiyor bolalikning beg'ubor olamiga sayr qilgandek bo'ldik. Ayniqsa, 5-«A» sinf o'quvchisi Suhrob Toshpo'latov va 7-«B» sinf o'quvchisi Eldorbek Sadriddinovning chizgan rasmlari bizga juda mazur bo'ldi.

Shuningdek, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Nilufar G'aniboyevaning «Ertaklar olami» deb nomlangan rasmda ham bolalikka xos soddalikni, beg'uborlikni his etish mumkin.



Suhrob



Eldorbek

Tengdoshlaringizning ijod namunalari tomosha qilib, siz ham zavqlaning.  
**Shavkat KAZAKBAYEV**

# BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

E'tiboringizga havola etilayotgan boshqotirma - Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlanadi. Unda Siz berilgan harflardan boshlanadigan harbiy askarlarga xos fazilatlarni topib, kataklarga to'g'ri joylashtirishingiz kerak.

J	A	S	O	R	A	T

BONU tuzdi  
 11-yanvar 2016

# MAZALI PISHIRIQ

Bugungi o'rganadigan pishirig'imiz mazasi va tez tayyorlanishi bilan barchaga mazur bo'ladi, degan umiddamiz.

**Kerakli masalliqlar:** 2 stakan qaynatilgan no'xot, ko'katlar, 2 ta kichkina piyoz, 2 bo'lak non, 2 bo'lak sarimsoqpiyoz, ta'bga ko'ra tuz, murch, ziravorlar.

**Tayyorlanishi:**  
 Qaynatilgan no'xot, non, ko'katlar, ziravorlar birgalikda 2 marta go'shtqiyimalagichdan o'tkaziladi.

Tayyor aralashmadan yong'oqdek koptokchalar yasali, yog'da qovurib olinadi. Ortiqcha yog' salfetkalariga shimdirib olinadi. Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

**Muassislar:**  
 O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLIOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
 Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALLOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
 Dilorom HOTAMOVA  
 Rassom  
 Feruzbek KAMOL o'g'li

**Manzillimiz:**  
 Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
 Indeks: 100129.  
 Obuna indeksi: 198.  
 e-mail: info@tongyulduzi.uz  
 www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08  
 Tel/faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
 ISSN 2010-6092  
 Adadi - 45003  
 Buyurtma - S 4864